

“O‘zbektelekom” AKning sifat bo‘yicha siyosati

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) O‘zbekiston Respublikasining telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish bozorida yetakchi o‘rinni egallaydi, shu bilan birga uning hududidan tashqari xizmatlarni ko‘rsatib, Markaziy Osiyoda yirik telekommunikatsiya operatorlaridan biri hisoblanadi.

Kompaniyaning asosiy maqsadi – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida eng so‘nggi yutuqlarni qo‘llagan holda, qonun va me‘yoriy talablarga muvofiq iste‘molchilar talablarini qondiruvchi keng doiradagi yuqori sifatli telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim qilish.

Kompaniya bosh strategik maqsadini amalga oshirish uchun:

- aloqa optik liniyalari qurilishini, modernizatsiyalash va texnologik qurilmani rivojlantirishni ta‘minlovchi telekommunikatsiya tarmoqlari infratuzilmasini oshiradi;
- 5-avlod mobil aloqaning (5G) tarmoqlarida va “internet buyumlar” texnologiyalarini rivojlantirishda keng polosali kirishni rivojlantirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etishni amalga oshiradi;
- “Big Data” katta ma‘lumotlarini va bulutli texnologiyalar xizmatlarini almashishda iste‘molchilarning doimiy o‘zib boruvchi talablarini qondirish uchun ma‘lumotlarga ishlov beruvchi Markazlarni modernizatsiya qiladi va kengaytiradi;
- boshqa davlatlar operatorlari bilan xalqaro hamkorlikni rivojlantirgan holda eksport potensialini oshiradi;
- Kompaniya taraqqiyotining marketing strategiyasini olib boradi, ya‘ni iste‘molchilar ehtiyojlariga yo‘naltirilgan ko‘p maqsadli marketingni yaratadi;
- 9000 seriyasidagi ISO standartlari bazasida sifat menejmenti tizimini olib boradi va takomillashtiradi;
- korporativ madaniyatni mustahkamlaydi, xodimlarning moddiy farovonligini yaxshilab boradi;
- har bir xodim tomonidan bajarilayotgan ishlar uchun javobgarlikni oshirish, o‘qitishni tashkil etish va mustaqil ravishda bilimlar olishni qo‘llab-quvvatlash orqali Kompaniyaning maqsadlariga erishish uchun personalni jalb qiladi;
- mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuvni ta‘minlagan holda, mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish orqali iste‘molchilarga telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tashkiliy masalalarni tezkor hal qiladi;
- iste‘molchilar uchun aniq afzalliklar bilan savdo brendi ko‘rinishini yaratadi va qo‘llab-quvvatlaydi.

Kompaniya rahbariyati sifat menejmenti tizimi (SMT)ning samaradorligini:

- o‘z vaktida nomuvofiqliklarning oldini olish va sabablarini bartaraf etish, hamda uni doimiy yaxshilash uchun Kompaniya sifat menejmenti tizimining tahlilini olib borish;
- sifat bo‘yicha maqsadlarni belgilash;
- kerakli resurslar bilan ta‘minlash;
- jarayonli yondashuv va tavakkalchilikka yo‘naltirilgan fikrlashni qo‘llash orqali doimo oshirib borishni ta‘minlaydi.

Kompaniya rahbariyati va xodimlari taqdim etilayotgan xizmatlarning sifati bo‘yicha muhosabalarini bartaraf etish uchun bor kuchlarini ishga soladilar, bu esa iste‘molchilar, xodimlar va aksiyadorlarning manfaatlarini inobatga olgan holda, Kompaniyaning raqobatbardoshligi va samarali rivojlanishining strategik ko‘rsatkichi hisoblanadi.